ANDIJON VILOYATI KICHIK BIZNESIDA INQIROZ XAVFINI ERTA ANIQLASHNING MOLIYAVIY DIAGNOSTIKASI

MUXAMMADSIDIQOV OTABEK DILSHODBEK O‘G‘LI
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: otabekkorea91@mail.ru
ORCID ID: 0009-0007-6356-9762

Annotatsiya. Maqolada Andijon viloyatida kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni, faol subyektlar soni dinamikasi va faoliyat uzluksizligi ko‘rsatkichlari 2022-2026-yillar ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Mehmonxona va boshqa xizmat ko‘rsatish korxonalarining moliyaviy hisobotlari asosida sof foyda marjasi, moliyaviy mustaqillik, majburiyatlar ulushi va tushum dinamikasi hisoblanib, inqiroz xavfining dastlabki belgilari aniqlangan. Muallif tomonidan hududiy ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi korxonalar darajasidagi moliyaviy zaifliklarni yashirishi mumkinligi asoslab berilgan hamda moliyaviy xavf signallarini ularning kombinatsiyasiga ko‘ra tasniflash yondashuvi taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: kichik biznes, Andijon viloyati, inqiroz xavfi, moliyaviy diagnostika, faoliyat uzluksizligi, sof foyda marjasi, moliyaviy mustaqillik, xavf signallari.

Аннотация. В статье на основе данных за 2022-2026 годы проанализированы роль малого бизнеса в региональной экономике Андижанской области, динамика численности действующих субъектов и показатели непрерывности их деятельности. На основе финансовой отчетности гостиничных и других сервисных предприятий рассчитаны маржа чистой прибыли, коэффициент финансовой независимости, доля обязательств и динамика выручки, выявлены ранние признаки риска кризиса. Автором обосновано, что положительная динамика региональных показателей может скрывать финансовую уязвимость на уровне предприятий, и предложен подход к классификации сигналов финансового риска по их сочетанию.
Ключевые слова: малый бизнес, Андижанская область, риск кризиса, финансовая диагностика, непрерывность деятельности, маржа чистой прибыли, сигналы риска.

Abstract. Based on data for 2022-2026, the article analyzes the role of small business in the regional economy of Andijan region, the dynamics of the number of active entities and indicators of business continuity. Using the financial statements of hotel and other service enterprises, the net profit margin, equity ratio, liabilities share and revenue dynamics are calculated, and early signs of crisis risk are identified. The author substantiates that positive dynamics of regional indicators may conceal financial vulnerability at the enterprise level and proposes an approach to classifying financial risk signals according to their combination.
Keywords: small business, Andijan region, crisis risk, financial diagnostics, business continuity, net profit margin, risk signals.

KIRISH

Kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi salmog‘i, odatda, yalpi hududiy mahsulot, sanoat, qurilish va bandlikdagi ulushi orqali baholanadi. Bu ko‘rsatkichlar tadbirkorlikning makrodarajadagi ahamiyatini ko‘rsatadi, ammo alohida korxonalarning likvidligi, rentabelligi yoki qarz yuki haqida axborot bermaydi. Hududiy ko‘rsatkichlar ijobiy o‘zgarayotgan sharoitda ham ayrim korxonalarda tushum keskin qisqarishi, xususiy kapital manfiy qiymatga o‘tishi va to‘lov qobiliyati zaiflashishi mumkin. Shu sababli inqiroz xavfini erta aniqlash hududiy tahlilni korxona darajasidagi moliyaviy diagnostika bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1; 2]. Ushbu vazifani amalga oshirishda qaysi korxonalar va qaysi belgilar bo‘yicha xavf shakllanayotganini oldindan aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik korxonalar muvaffaqiyatsizligi omillarini o‘rgangan J.Argenti inqirozni boshqaruvdagi kamchiliklardan boshlanib, moliyaviy simptomlar orqali namoyon bo‘luvchi va yakuniy bosqichda to‘lovga qobiliyatsizlikka olib keluvchi jarayon sifatida tavsiflagan [6]. Bu yondashuv moliyaviy hisobotlarda aks etadigan simptomlar inqirozning birinchi emas, balki oraliq bosqichi ekanini ko‘rsatadi. M.M.Ma’aji kichik va o‘rta biznes bankrotligini rentabellik, qarz yuki, likvidlik va operatsion xarajatlar bilan bir qatorda korxona yoshi va joylashgan hududning sanoatlashuv darajasi bilan ham bog‘lagan [9]. J.Zainol Abidin Malayziya mehmonxona sohasidagi kichik va o‘rta korxonalar muvaffaqiyatsizligini modellashtirib, tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslagan [12]. Moliyaviy koeffitsiyentlarni integral bahoga birlashtirish an’anasi E.Altman ishlaridan boshlangan bo‘lsa [5], keyinchalik E.Altman va G.Sabato kichik va o‘rta biznes uchun alohida modellar zarurligini ko‘rsatgan [4]. F.A.Badi likvidlik, qarz yuki va rentabellikni kichik biznes kredit riskining asosiy prediktorlari sifatida o‘rgangan [7], W.Fu esa moliyaviy tanglikni vaqt bo‘yicha rivojlanuvchi jarayon sifatida modellashtirgan [8].

Mahalliy tadqiqotlarda B.B.Mirzaxalikov kichik biznesning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish qobiliyati bilan bog‘lagan [13], I.K.Jo‘rayev esa zarar bilan yakunlanish ehtimoliy holatlarini inqirozni erta tashxislash asosi sifatida ko‘rgan [11], F.N.Bayboboyeva esa moliyaviy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tashqi va ichki risklarni tizimli tasniflagan [10]. L.J.Sidorenko kichik korxonalar moliyaviy barqarorligini alohida koeffitsiyent orqali emas, turli ko‘rsatkichlar va xavf omillari majmuasi orqali baholash zarurligini ta’kidlagan [14].

Shunga qaramay, mavjud ishlarda hududiy statistika va korxona darajasidagi moliyaviy hisobotlar, odatda, alohida o‘rganiladi. Hududiy agregatlarning ijobiy dinamikasi bilan korxonalardagi moliyaviy zaiflik o‘rtasidagi tafovut, shuningdek, xavf belgilarining turli kombinatsiyalari amaliy ma’lumotlar asosida yetarlicha tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar [3] hamda Andijon viloyatidagi mehmonxona, uy-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarining 2022-2024-yillar buxgalteriya balanslari va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlari tashkil etdi. Tahlilda guruhlash, indeks, zanjirsimon o‘zgarish sur’atlari, koeffitsiyentlar va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Faol subyektlar sonining yillik o‘zgarishi quyidagicha hisoblandi:

$$T(N,t) = (N(t) - N(t-1)) / N(t-1) \times 100\%, \quad (1)$$

bu yerda: N(t) va N(t–1) – mos ravishda joriy va oldingi davrdagi faol subyektlar soni. Korxonalar darajasida sof foyda marjasi R(s) = SF / ST × 100%, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti K(mm) = XK / JA × 100% va majburiyatlar ulushi K(qy) = JM / JA × 100% hisoblandi, bu yerda SF – sof foyda (zarar), ST – sotishdan sof tushum, XK – xususiy kapital, JM – jami majburiyatlar, JA – jami aktivlar. Tahlil birligi sifatida korxona-yil kuzatuvi qabul qilindi, bir yilga oid takroriy hisobotlar yakuniy nusxa bo‘yicha bitta kuzatuvga keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Andijon viloyatida kichik biznes hududiy iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyatida kichik biznesning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi, %

Ko‘rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O‘zgarishi, foiz punkt
Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi	69,5	68,6	70,1	+0,6
Sanoatdagi ulushi	22,4	22,2	32,1	+9,7
Qurilishdagi ulushi	93,8	94,5	92,8	–1,0
Bandlikdagi ulushi	80,2	80,7	81,3	+1,1

Manba: Statistika agentligi ma’lumotlari [3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, 2022-2024-yillarda kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 69,5 foizdan 70,1 foizga, bandlikdagi ulushi 80,2 foizdan 81,3 foizga oshgan. Eng sezilarli tarkibiy o‘zgarish sanoatda kuzatilib, kichik biznes ulushi ikki yilda 9,7 foiz punktga ortgan. Mutlaq ko‘rsatkichlar ham o‘sishni tasdiqlaydi: kichik tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni 2022-yildagi 1 040,0 ming kishidan 2025-yilda 1 155,1 ming kishiga (11,1 foizga) yetgan, sanoat mahsulotlari hajmi esa joriy narxlarda 12 180,9 mlrd so‘mdan 41 039,9 mlrd so‘mga ko‘paygan. Xizmatlar sohasining choraklik o‘sish sur’atlari ham 2022-2024-yillarda 102,9-108,6 foiz oralig‘ida musbat bo‘lgan [3].

Hududiy agregatlarning ijobiy dinamikasidan farqli ravishda, faol kichik tadbirkorlik subyektlari soni keskin tebranishlarni namoyon etadi (2-jadval).

Andijon viloyatida faol subyektlar soni 2023-yil boshida 11,5 foizga oshgan bo‘lsa, 2024-yil boshida 37,5 foizga, 2025-yil boshida yana 18,1 foizga qisqargan. 2026-yil boshida faol subyektlar soni 2022-yil darajasining 61,4 foizini tashkil etgan, respublika bo‘yicha esa bu ko‘rsatkich 87,2 foizga teng. Natijada viloyatning respublikadagi ulushi 7,56 foizdan 5,33 foizga tushgan. Shu bilan birga, ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar soni 2022-2024-yillarda 38 057 tadan 44 924 taga ko‘paygan, faoliyat ko‘rsatmayotganlar ulushi esa 8,04 foizdan 45,73 foizga yetgan.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

2-jadval

Faol kichik tadbirkorlik subyektlari soni va faoliyat holati dinamikasi

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025	2026
Respublika bo‘yicha faol subyektlar, ta	462 834	523 556	417 080	358 116	403 767
Andijon viloyatida faol subyektlar, ta	34 999	39 038	24 381	19 967	21 503
Andijon viloyatining ulushi, %	7,56	7,46	5,85	5,58	5,33
Andijon: zanjirsimon o‘zgarish, %	–	+11,5	–37,5	–18,1	+7,7
Andijon: ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar, ta	38 057	42 166	44 924	–	–
Andijon: faoliyat ko‘rsatmayotganlar ulushi, %	8,04	7,42	45,73	–	–

Manba: Statistika agentligi ma’lumotlari [3] asosida muallif hisob-kitoblari. Izoh: ko‘rsatkichlar dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, yil boshi holatiga ko‘ra keltirilgan.

Mazkur o‘zgarishlarni talqin qilishda ehtiyotkorlik zarur. 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmonga muvofiq soliq, statistika va adliya organlarining ma’lumotlar bazalari birxillashtirilgani sababli faol bo‘lmagan subyektlarning bir qismi hisobdan chiqarilgan bo‘lishi mumkin [3]. Shu bois faoliyat ko‘rsatmayotganlar ulushining o‘sishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bankrotliklar soni sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Biroq ro‘yxatdagi va amalda faoliyat yuritayotgan subyektlar o‘rtasidagi tafovutning bunday darajasi viloyatda tadbirkorlik faoliyati uzluksizligi muammosi mavjudligini va uni korxona darajasida kuzatish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, hududiy tahlil muhim tafovutni namoyon etadi: kichik biznesning yalpi hududiy mahsulot, bandlik va sanoatdagi ulushi ortib borayotgan bir paytda faol subyektlar soni keskin qisqargan. Boshqacha aytganda, agregat ko‘rsatkichlarning o‘sishi faoliyatni davom ettirayotgan korxonalar hisobidan ta’minlanib, faoliyatdan chiqayotgan subyektlar bilan bog‘liq xavfni yashiradi. Bu holat inqiroz xavfini hududiy agregatlar orqali emas, korxona darajasidagi moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali aniqlash zarurligini asoslaydi.

3-jadval

Mehmonxona korxonalarining sof tushum va sof moliyaviy natijalari, mln so‘m

Korxona	Ko‘rsatkich	2022	2023	2024
HOTEL AZIA FERGANA	Sof tushum	10 421,51	13 851,86	13 757,72
	Sof foyda	1 400,01	2 901,26	3 715,36
VELLA ELEGANT	Sof tushum	19 593,27	14 772,20	10 964,36
	Sof foyda	28,86	76,41	153,12
ASMALD HOTEL	Sof tushum	4 049,69	4 878,84	5 627,19
	Sof foyda	106,18	314,48	578,33
GRAND YULDUZ HOTEL	Sof tushum	662,58	688,97	15,11
	Sof foyda (zarar)	251,26	277,65	–195,00

Manba: korxonalarning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Korxona darajasidagi tahlil uchun bir xil faoliyat turiga – mehmonxona xizmatlariga – mansub to‘rtta korxonaning hisobotlari tanlandi. Ularning tushum va moliyaviy natijalari bir xil yo‘nalishda shakllanmagan (3-jadval).

HOTEL AZIA FERGANAda sof foyda uch yilda 2,65 barobar, ASMALD HOTELda 5,45 barobar oshgan. VELLA ELEGANTda esa tushum 2022-yildagi 19 593,27 mln so‘mdan 2024-yilda 10 964,36 mln so‘mga (44,0 foizga) qisqargani holda sof foyda ortgan. Bu holat foyda dinamikasini tushum dinamikasidan ajratib baholash xavf belgisini o‘tkazib yuborishga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. GRAND YULDUZ HOTELda 2024-yilda tushum 688,97 mln so‘mdan 15,11 mln so‘mga (97,8 foizga) qisqarib, 277,65 mln so‘mlik foyda 195,00 mln so‘mlik zararga aylangan. 2024-yil yakunidagi asosiy diagnostik ko‘rsatkichlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Mehmonxona korxonalarining 2024-yildagi moliyaviy diagnostika ko‘rsatkichlari

Korxona	Sof foyda marjasi, %	Moliyaviy mustaqillik, %	Majburiyatlar ulushi, %	Tushum o‘zgarishi, %	Signallar soni (3 tadan)
HOTEL AZIA FERGANA	27,01	95,44	4,56	–0,7	0
VELLA ELEGANT	1,40	30,05	69,95	–25,8	3
ASMALD HOTEL	10,28	36,64	63,36	+15,3	1
GRAND YULDUZ HOTEL	–1 290,52	7,87	92,13	–97,8	3

Manba: muallif hisob-kitoblari. Izoh: signal sifatida sof foyda marjasining 5 foizdan past yoki manfiy bo‘lishi, moliyaviy mustaqillikning 50 foizdan past bo‘lishi va tushumning 10 foizdan ortiq qisqarishi shartli ravishda qabul qilingan; majburiyatlar ulushi moliyaviy mustaqillikni to‘ldiruvchi ko‘rsatkich bo‘lgani sababli alohida signal sifatida hisoblanmagan.

4-jadval ma’lumotlari bir xil tarmoqdagi korxonalarda moliyaviy ko‘rsatkichlar turlicha kombinatsiyada shakllanganini ko‘rsatadi. HOTEL AZIA FERGANA yuqori rentabellik (27,01 %) va deyarli to‘liq o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish (95,44 %) bilan ajralib turadi. ASMALD HOTELda tushum va foyda o‘sgan, ammo aktivlarning 63,36 foizi majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilgan. VELLA ELEGANTda foyda musbat bo‘lsa-da, past marja (1,40 %), yuqori majburiyatlar ulushi (69,95 %) va tushumning 25,8 foizga qisqarishi birgalikda kuzatiladi. GRAND YULDUZ HOTELda esa uchala ko‘rsatkich bo‘yicha ham salbiy signal mavjud. E’tiborli jihati, VELLA ELEGANT va GRAND YULDUZ HOTELda signallar soni bir xil (3 tadan), biroq ularning intensivligi keskin farqlanadi: sof foyda marjasi mos ravishda 1,40 va –1 290,52 foiz, tushumning qisqarishi esa 25,8 va 97,8 foiz. Demak, signallarni oddiy sanash xavf darajasini to‘liq ifodalamaydi va ko‘rsatkichlarning chetlanish darajasini hisobga oluvchi integral baholash talab etiladi.

Muhim jihat shundaki, VELLA ELEGANT an’anaviy “foyda bor – xavf yo‘q” mantiqi bilan baholanganda barqaror korxona sifatida qabul qilinadi. Holbuki,

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

tushumning izchil qisqarishi sharoitida 1,40 foizlik marja korxonada tushumning yanada kamayishiga qarshi moliyaviy zaxira deyarli yo‘qligini, yuqori majburiyatlar ulushi esa bu zaxirani qarz mablag‘lari bilan to‘ldirish imkoniyati cheklanganini bildiradi. Aynan shunday yashirin xavf holatlari erta ogohlantirish tizimining asosiy obyekti bo‘lishi kerak.

Boshqa xizmat ko‘rsatish korxonalarida xavf belgilari kapital tarkibida yaqqolroq namoyon bo‘lgan. NAVRO‘Z PROF SERVIS korxonasida 2022-yilda xususiy kapital –4 901,0 ming so‘m, 2023-yilda esa –9 370,9 ming so‘mni tashkil etgan, joriy likvidlik koeffitsiyenti 0,744 dan 0,601 ga pasaygan. FURKAT AND PARTNERS korxonasida xususiy kapital 2022-yildagi 6 894 ming so‘mdan 2023-yilda 7 ming so‘mga va 2024-yilda –3 527 ming so‘mga tushgan. APART HOTEL KOSMOS hisobotlarida esa ayrim davrlarda katta hajmdagi aktivlar, keyingi davrlarda nol balans qayd etilgan bo‘lib, bu holat moliyaviy xavfdan oldin ma’lumotlar ishonchliligi va faoliyat maqomini aniqlashtirishni talab qiladi.

Olingan natijalar asosida moliyaviy xavf belgilarini alohida koeffitsiyentlar bo‘yicha emas, ularning kombinatsiyasi bo‘yicha tasniflash taklif etiladi (5-jadval).

5-jadval

Kichik biznes subyektlarida moliyaviy xavf signallari kombinatsiyalarining tipologiyasi

Tip	Signallar kombinatsiyasi	Tadqiqotdagi misol	Diagnostik mazmuni
I. Ijobiy kombinatsiya	Yuqori marja, yuqori xususiy kapital ulushi, barqaror tushum	HOTEL AZIA FERGANA	Davriy monitoring yetarli
II. Moliyalashtirish tuzilmasi xavfi	Foyda o‘sishi, ammo majburiyatlar ulushi yuqori	ASMALD HOTEL	Qarzga xizmat ko‘rsatish salohiyatini kuzatish
III. Yashirin xavf	Musbat, ammo past marja, tushumning qisqarishi, yuqori qarz yuki	VELLA ELEGANT	Ogohlantirish; tushum va pul oqimlarini chuqur tahlil qilish
IV. Kapital yetishmovchiligi	Manfiy xususiy kapital, joriy likvidlik birdan past	NAVRO‘Z PROF SERVIS, FURKAT AND PARTNERS	Inqiroz oldi holati; kapitalni tiklash zarur
V. Ko‘p signalli inqiroz	Tushumning keskin qisqarishi, zarar, past kapital ulushi	GRAND YULDUZ HOTEL	Tezkor antikrizis choralari
VI. Axborot xavfi	Nomuvofiq yoki nol qiymatli hisobotlar	APART HOTEL KOSMOS	Avval ma’lumotlarni tekshirish

Manba: muallif ishlanmasi.

Taklif etilgan tipologiyaning afzalligi shundaki, u xavf darajasi bilan birga uning manbasini ham ko‘rsatadi va shu orqali boshqaruv choralarini aniq yo‘naltirish imkonini beradi. Masalan, II tipdagi korxonaga moliyalashtirish shartlarini qayta ko‘rib chiqish, III tipdagi korxonaga esa tushum va xarajatlar

tuzilmasini tahlil qilish ustuvor bo‘ladi, garchi ikkalasida ham sof foyda musbat bo‘lsa-da. VI tipning alohida ajratilishi esa diagnostika tizimida ma’lumotlar sifatini tekshirish majburiy bosqich bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi: noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan hisobot asosida chiqarilgan xulosa xavfni ham, barqarorlikni ham noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlarini qayd etish lozim. Tahlil qilingan korxonalar soni kichik va ular asosan xizmat ko‘rsatish sohasiga mansub, shu sababli 4-jadval izohida keltirilgan chegaralar statistik jihatdan kalibrlangan mezonlar emas, balki tahliliy vosita sifatida qabul qilingan. Ularni amaliyotda qo‘llash uchun tarmoq bo‘yicha kengroq tanlanma va mustaqil tasdiqlangan inqiroz hodisalari asosida tekshirish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, Andijon viloyatida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi (70,1 %), bandlikdagi (81,3 %) va sanoatdagi (32,1 %) ulushi 2024-yilda o‘sgan bo‘lsa-da, faol subyektlar soni 2026-yil boshida 2022-yil darajasining atigi 61,4 foizini tashkil etgan va bu ko‘rsatkich respublika o‘rtachasidan (87,2 %) sezilarli past. Faoliyat ko‘rsatmayotganlar ulushining 45,73 foizga yetishi tadbirkorlik faoliyati uzluksizligi muammosini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, hududiy agregatlarning ijobiy dinamikasi korxonalar darajasidagi moliyaviy zaifliklarni yashirishi mumkin. Shu sababli inqiroz xavfini erta aniqlash tizimi hududiy statistikaga emas, korxona-yil kuzatuvlariga asoslangan moliyaviy diagnostikaga tayanishi lozim, hududiy ko‘rsatkichlar esa qo‘shimcha omil sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, bir xil tarmoqdagi korxonalarda xavf belgilari turlicha kombinatsiyada namoyon bo‘ladi. Sof foyda musbat bo‘lgan korxonada ham past marja, tushumning qisqarishi va yuqori qarz yuki birgalikda yashirin xavfni shakllantiradi. Shu bois foyda ko‘rsatkichini tushum dinamikasi va kapital tarkibidan ajratib baholash amaliyotidan voz kechish zarur.

To‘rtinchidan, muallif tomonidan taklif etilgan xavf signallari kombinatsiyalarining olti tipli tipologiyasi korxonaning xavf darajasini uning manbasi bilan bog‘lash, boshqaruv choralarini aniq yo‘naltirish va ma’lumotlar sifati bilan bog‘liq axborot xavfini alohida nazorat qilish imkonini beradi. Uni hududiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari, tijorat banklari va korxonalarning o‘zi tomonidan dastlabki diagnostika vositasi sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 12-aprel, O‘RQ-763-son. // www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha hududiy statistik ma’lumotlar (2022-2026-yillar). // www.stat.uz

4. Altman E.I., Sabato G. Modelling Credit Risk for SMEs: Evidence from the U.S. Market // Abacus. – 2007. – Vol. 43, No. 3. – P. 332-357.

5. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589-609.

6. Argenti J. Corporate Collapse: The Causes and Symptoms. – London: McGraw-Hill, 1976. – 193 p.

7. Badi F.A. Predicting SMEs’ credit risk using artificial intelligence applications: Evidence from the UK SMEs: PhD thesis. – Plymouth: University of Plymouth, 2026. – 255 p.

8. Fu W.H.-W. Stochastic Modeling for Financial Distress and Bankruptcy in a Small Business: PhD thesis. – Winnipeg: University of Manitoba, 2008. – 157 p.

9. Ma’aji M.M. Determinants of SME’s Failure in Malaysia and Nigeria: PhD thesis. – Sintok: Universiti Utara Malaysia, 2018. – 428 p.

10. Bayboboyeva F.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida): i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Namangan, 2022. – 59 b.

11. Jo‘rayev I.K. Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish (to‘qimachilik korxonalari misolida): i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Namangan, 2022. – 56 b.

12. Zainol Abidin J.B. Modelling SMEs Failure in the Hospitality Industry of Malaysia: PhD thesis. – Sintok: Universiti Utara Malaysia, 2022. – 387 p.

13. Mirzaxalikov B.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini oshirish yo‘llari: i.f.f.d. (PhD) dis. avtoref. – Namangan, 2022. – 60 b.

14. Сидоренко Л.Ж. Методы оценки финансовой устойчивости предприятий малого бизнеса и факторов, влияющих на нее, в условиях современной России: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Майкоп, 2011.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy